

"Matematikaning inson hayotidagi o'rni" mavzusidagi navbatdagi master-klass mashg'uloti

2020-yil 11-avgust kuni O'zR FA Matematika instituti direktori o'rinbosari, Butun jahon fanlar akademiyasi akademigi, professor O'tkir Roziqovning "Matematikaning inson hayotidagi o'rni" mavzusidagi master-klass mashg'ulotlari bo'lib o'tdi.

Matematikaning inson hayotidagi o'rni

U.A. Rozikov
TWAS akademigi, professor


*V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika Instituti,
Toshkent, O'zbekiston.*



Ushbu maruzada biz matematika fanining qo'llanishiga doir bir necha qiziqarli malumotlar beramiz.

Ko'plab sinflarda (va talabalar auditoriyasida) birinchi dars boshlaganida quyidagi savol bilan murojatta qildi: 7 ni 8 ga bo'ling. Buni doskada har bir o'quvchi quyidagicha bajaradi:

$$\begin{array}{r} 70 \quad | \quad 8 \\ - \quad 64 \quad | \quad 0,875 \\ \hline 60 \\ - \quad 56 \\ \hline 40 \\ - \quad 40 \\ \hline 0 \end{array}$$



Matematika instituti direktori, akademik Shavkat Ayupov master-klass mashg'ulotining kirish qismida matematika ilm-fanining hozirgi kundagi dolzarb yo'nalishlari hamda mamlakatimizda matematika ilm-fanini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berdilar.

Master-klass mashg'ulotida professor O'tkir Roziqov maktab o'qituvchilari va yoshlar uchun matematika fanining hayotiy tadbirlari va ularni o'quvchilarga qanday usullarda tushuntirish kerakligi haqida ma'ruza qildilar. Ma'ruza so'ngida maktab o'qituvchilari bilan savol-javoblar bo'ldi.

"Matematikaning inson hayotidagi o'rni" mavzusidagi navbatdagi master-klass mashg'uloti 2020-yil 18-avgust kuni soat 11:30 da o'tkaziladi.